

_____-sonli
mikrokredit shartnomasi

Kreditning to'lik qiymati
(mikrokredit shartnomasi
tizilgan sanada)

Yillik 00.0%
(*rasshifrovka so'z bilan*)

_____ shahri

«____» _____ yil
kun raqam, oy so'z, yil raqam bilan yozilsin

“Asia Alliance Bank” ATB (bundan buyon «Bank» deb nomlanadi) nomidan ishonchnoma asosida harakat qiluvchi Bankning _____ MBXO boshqaruvchisi _____ (F.I.O.) _____ bir tarafdin, va

_____ (F.I.O. to'liq) _____ (Qarz oluvchi), fuqaro _____ (F.I.O. to'liq) _____ (Birgalikda qarz oluvchi), ikkinchi tomondan, (bundan buyon «Qarz oluvchi(-lar)»(lar) deb nomlanuvchi(-lar))” mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risidagi tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Bank Qarz oluvchi(-lar)ga summa raqam bilan (summa so'z bilan) so'm (asosiy qarz) miqdoridagi mikrokreditni raqam bilan (so'z bilan) oy muddatga va ushbu mikrokredit shartnomasida (bundan buyon matnda - Shartnoma) belgilangan shartlarda beradi. Ushbu mikrokredit mablag'lari qarz oluvchi tomonidan taqdim qilingan “O'zini-o'zi band qilgan shaxsning moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotnoma”sida ko'rsatilgan faoliyatni kengaytirish maqsadida ajratiladi.

1.2. Mikrokredit to'liq qiymati: yiliga (raqam va so'z bilan) %. Qarz oluvchiga berilayotgan mikrokreditning to'liq qiymati O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq hisoblangan.

1.3. Mikrokreditning to'liq qiymatini hisoblash uchun quyidagilardan foydalanilgan:

- ____ yil _____ holatiga «_____» sug'urta kompaniyasining tariflari;
- ____ yil _____ holatiga «_____» baholovchi kompaniyaning tariflari;
- O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan notarial xizmatlar uchun davlat bojlari stavkalari;

- uchinchi shaxslar (kafil va boshqa) foydasiga to'lovlar.

Yuqorida ko'rsatilgan to'lovlar miqdori mikrokreditning shartlari to'g'risidagi axborot varag'ida ko'rsatilgan. Ushbu Shartnomani imzolash bilan Qarz oluvchi axborot varaqasini olganligini va tanishib chiqqanligini tasdiqlaydi.

Agar Qarz oluvchi boshqa sug'urta kompaniyasi/baholovchi kompaniyasining xizmatlariga murojaat qilsa, mikrokreditning to'liq qiymati ushbu Shartnoma tuzilgan kuni Bank tomonidan hisoblanganidan farq qilishi mumkin.

1.4. Mikrokredit qaytarishlilik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va maqsadlilik shartlarida beriladi.

2. MIKROKREDITNI BERISH VA TO'LASH TARTIBI

2.1. Mikrokreditni berish muddati – Qarz oluvchi ushbu Shartnomaning 4.1-bandiga muvofiq ta'minotni taqdim etish bo'yicha majburiyatini bajarganlik sharti bilan ushbu Shartnoma imzolangan kundan boshlab 1 (bir) oyni tashkil etadi.

Mikrokredit yuqorida ko'rsatilgan muddat ichida Qarz oluvchi(lar)ning arizasi asosida Qarz oluvchi(lar)ning ssuda hisobraqamidan naqdsiz shaklda o'tkazib berish yoki Qarz oluvchi(lar)ning plastik kartasiga o'tkazib berish yoxud bank kassasidan naqd pul berish yo'li bilan beriladi.

2.2. Mikrokredit bo'yicha asosiy qarzni va foizlarni to'lash Qarz oluvchi(lar) tomonidan annuitet/differentsial usulda ushbu Shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan 1-ilovada keltirilgan so'ndirish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

2.3. Mikrokredit bo'yicha asosiy qarzni va foizlarni so'ndirish sanasi bank ish kuni bo'lmasa, u holda to'lov keyingi bank ish kuniga suriladi.

2.4. Agar Qarz oluvchi(lar) mikrokredit bo'yicha asosiy qarzni to'lash sanasiga qadar kredit bo'yicha asosiy qarzni to'lamasa, Qarz oluvchi(lar) muddati o'tgan qarzlar hisobvarag'ida turgan har bir kuni uchun ushbu Shartnomaning 3.1-bandiga muvofiq foizlarni to'lab beradi.

2.5. Qarz oluvchi(-lar)dan qabul qilingan mablag'lar yoki Qarz oluvchi(-lar)ning Bankdagi har qanday hisobvaraqlarida mavjud bo'lgan pul mablag'lari ushbu Shartnoma bo'yicha qarzini to'lash uchun quyidagi tartib va ketma-ketlikda yo'naltiriladi:

- asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;

- joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;

- neustoyka (jarima va penyalar);

- kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

2.6. Ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan mikrokredit bo'yicha asosiy qarz, foizlari va/yoki boshqa to'lovlarni so'ndirish Qarz oluvchi(lar)ning arizalarini, Bankning topshiriqlarini bajarish va/yoki Bank tomonidan Qarz oluvchining bankda ochilgan maxsus hisobvarag'idagi mablag'larni memorial orderlar bilan hisobdan chiqarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2.7. Asosiy qarzni to'lash berilgan kredit hisobi yuritiladigan ssuda hisobraqamiga, hisoblangan foizlarni to'lash esa ushbu Shartnoma doirasida mikrokredit bo'yicha hisoblangan foizlar hisobi yuritiladigan hisobraqamga amalga oshiriladi. Asosiy qarz va unga hisoblangan foizlar to'langanlik sanasi deb mablag'larni ko'rsatilgan hisobvaraqlarga kelib tushgan kun hisoblanadi.

2.8. Ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni so'ndirish uchun pul mablag'larni Qarz oluvchi(-lar) ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan miqdorda va muddatda o'zlari tanlagan istalgan shaklda, jumladan, o'z faoliyati natijalari bo'yicha daromadlarni, pensiya va boshqa daromadlarni o'tkazib berish yoki bankda ochilgan maxsus hisob raqamiga plastik kartadan to'lab berish yo'li bilan ta'minlashlari shart.

Topshirilgan mablag'lar mikrokreditni keyingi to'lash sanasiga qadar Bankda ochilgan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Qarz oluvchi(lar)ning ushbu Shartnomaga muvofiq to'lovlarni so'ndirish uchun hisobvarag'iga kiritgan pul mablag'lari summasi ushbu shartnomaning 1-ilovasida nazarda tutilgan miqdoridan ortiq bo'lsa, bank faqat navbatdagi to'lov miqdorini hisobdan chiqaradi, qoldiq summaning hisobi hisobraqamda yuritilishda davom etadi.

3. MIKROKREDIT UCHUN TO'LOV

3.1. Bank kredit bo'yicha asosiy qarzning mavjud qoldig'iga foizlarni yillik qat'iy belgilangan/suzuvchi raqam bilan (so'z bilan) foiz hisobidan hisoblaydi. Kredit bo'yicha asosiy qarzni so'ndirish ushbu Shartnomaning 1-ilovasida nazarda tutilgan sanadan kechikkanda, mikrokreditning foiz stavkasi oshadi va Bank mikrokredit bo'yicha muddati o'tgan asosiy qarzning mavjud qoldig'iga yillik raqam bilan (so'z bilan) foiz hisobidan foizlar hisoblaydi.

3.2. Kreditning qoldig'iga foizlar har ish kunining oxirida yiliga 365/366 kun va har oydagi haqiqiy kunlar soni asosida hisoblanadi. Hisoblash mikrokreditning birinchi summasi taqdim etilgan kundan boshlab amalga oshiriladi.

3.3. Qarz oluvchi(-lar) ushbu shartnomaning 1-ilovasida nazarda tutilgan so'ndirish jadvaliga muvofiq mikrokreditdan foydalanganlik uchun ushbu shartnomani 3.1 va 3.2-bandlariga muvofiq hisoblangan foizlarni Bankka to'lab beradi.

3.4. Belgilangan muddat davomida foizlar to'lanmaganda va ular bo'yicha muddati o'tgan summalar paydo bo'lganda, Qarz oluvchi(-lar) Bankka muddati o'tgan to'lovning har bir kuni uchun 0,15 foiz, ammo muddati o'tgan to'lov summasining 50 foizidan oshmagan miqdorda jarima to'laydilar.

4. MIKROKREDIT QAYTARILISHINI TA'MINLASH

4.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha mikrokredit ishonchli asosda (ta'minlangan) beriladi. Shuningdek, ushbu Shartnoma bo'yicha mikrokredit quyidagilar bilan ta'minlanadi:

4.1.1. _____ shahri, _____ tumani, _____ ko'chasi, ____-uy manzili bo'yicha joylashgan, (mulkdorning nomi) ga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan, bundan keyin «Garov predmeti» deb ataluvchi ko'chmas mulkning garovi bilan ta'minlangan (ipoteka) bilan, (Bank, Qarz oluvchi(-lar) va (garovga qo'yuvchining nomi) - agar garovga qo'yuvchi uchinchi shaxs bo'lsa) tomonidan imzolangan) _____ yildagi ____-sonli Garov predmeti qiymatini kelishish dalolatnomasiga binoan kelishilgan garov qiymatida. Garov (ipoteka)ning aniq shartlari tegishli notarial yoki bank tomonidan mustaqil ravishda tasdiqlangan garov (ipoteka) shartnomasi bilan belgilanadi. Qarz oluvchi(lar) Garov predmetini Bank tomonidan ma'qullangan sug'urta kompaniyasi orqali sug'urta qilish va sug'urtani ushbu shartnoma amal qilishining butun muddati davomida ta'minlash majburiyatini oladi(-lar). Sug'urta hodisasi yuz berganda naf oluvchi bank hisoblanadi.

Tegishli tarzda rasmiylashtirilgan sug'urta shartnomasi, sug'urta polisi va garov predmetining notarial yoki bank tomonidan mustaqil ravishda tasdiqlangan garov (ipoteka) shartnomasi Qarz oluvchi(-lar) tomonidan ushbu shartnomaga binoan kredit berilishidan oldin Bankka taqdim etilishi lozim.

Garov shartnomasini notarius huzurida tasdiqlash, shuningdek, sug'urta shartnomasini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni Qarz oluvchi o'z hisobidan to'laydi.

4.1.2. Bundan keyin «Garov ob'ekti» deb ataluvchi, nominal qiymati raqam bilan (summa so'z bilan) so'm bo'lgan, raqam bilan (soni so'z bilan)____-dona, (Mulkdorning nomi)ga tegishli aksiyalarning garovi bilan, (Bank, Qarz oluvchi(-lar) va (garovga qo'yuvchining nomi) - agar garovga qo'yuvchi uchinchi shaxs bo'lsa) tomonidan imzolangan) _____ yildagi ____-sonli Garov predmeti qiymatini kelishish dalolatnomasiga binoan kelishilgan garov qiymatida. Garovning aniq shartlari tegishli notarial tasdiqlangan garov shartnomasi bilan belgilanadi. Garov shartnomasini notarius huzurida rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni Qarz oluvchi o'z hisobidan ko'taradi.

4.1.3. (Kafilning nomi)ning kafilligi bilan, bundan keyin «kafil» deb ataladi. Kafillikning aniq shartlari mikrokredit taqdim etilgunga qadar Qarz oluvchi(-lar) tomonidan rasmiylashtirilishi lozim bo'lgan Bank, Qarz oluvchi(lar) va Kafil o'rtasida tuzilgan tegishli kafillik shartnomasida ko'zda tutiladi. Kafillik shartnomasini tuzish bilan bog'liq xarajatlarni Qarz oluvchi o'z mablag'lari hisobidan to'laydi.

4.1.4. «_____» rusumdagi, _____ yilda ishlab chiqarilgan, rangi _____, dvigatel raqami _____, kuzov raqami _____, davlat raqami _____ (avtotransport vositasi DYHXX idoralarida davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma), bundan keyin «Garov ob'ekti» deb ataluvchi, (Mulkdorning nomi)ga tegishli avtomobil/maxsus texnikaning garovi bilan, Bank va Qarz oluvchi(lar) (garovga beruvchi uchinchi shaxs bo'lsa, (Bank, Qarz oluvchi(-lar) va (garovga qo'yuvchining nomi) - agar garovga qo'yuvchi uchinchi shaxs bo'lsa) tomonidan imzolangan) _____ yildagi ____-sonli Garov predmeti qiymatini kelishish dalolatnomasiga binoan kelishilgan ro'yxat va summa raqam bilan (summa so'z bilan) garov qiymatida. Garovning aniq shartlari tegishli tarzda notarial yoki bank tomonidan mustaqil ravishda tasdiqlangan garov shartnomasi bilan belgilanadi. Qarz oluvchi(lar) Garov predmetini Bank tomonidan ma'qullangan sug'urta kompaniyasi orqali sug'urta qilish va sug'urtani ushbu shartnoma amal qilishining butun muddati davomida ta'minlash majburiyatini oladi(-lar). Sug'urta hodisasi yuz berganda naf oluvchi bank hisoblanadi.

Tegishli tarzda rasmiylashtirilgan sug'urta shartnomasi, sug'urta polisi va notarial yoki bank tomonidan mustaqil ravishda tasdiqlangan garov shartnomasi Qarz oluvchi(-lar) tomonidan ushbu shartnomaga binoan mikrokredit berilish sanasiga qadar Bankka taqdim etilishi lozim. Garov shartnomasini notarius huzurida rasmiylashtirish, shuningdek, sug'urta shartnomasini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni Qarz oluvchi o'z hisobidan to'laydi.

4.1.5. Mulk huquqi asosida (Mulkdorning nomi)ga tegishli mol-mulkning (bundan keyin Garov predmeti deb ataladi) garovi bilan, Garov predmetining (Bank, Qarz oluvchi(-lar) va (garovga

qo'yuvchining nomi) - agar garovga qo'yuvchi uchinchi shaxs bo'lsa) tomonidan imzolangan) _____ yildagi _____-sonli Garov predmeti qiymatini kelishish dalolatnomasiga binoan kelishilgan garov qiymati _____ (_____/00) so'mni tashkil qiladi.

Garovning aniq shartlari tegishli notarial tasdiqlangan garov shartnomasi bilan belgilanadi. Qarz oluvchi(lar) Garov predmetini Bank tomonidan ma'qullangan sug'urta kompaniyasi orqali sug'urta qilish va sug'urtani ushbu shartnoma amal qilishining butun muddati davomida ta'minlash majburiyatini oladi(-lar). Sug'urta hodisasi yuz berganda naf oluvchi bank hisoblanadi.

Tegishli tarzda rasmiylashtirilgan sug'urta shartnomasi, sug'urta polisi va garov predmetining notarial tasdiqlangan garov (ipoteka) shartnomasi Qarz oluvchi(-lar) tomonidan ushbu shartnomaga binoan kredit berilishidan oldin Bankka taqdim etilishi lozim.

Garov shartnomasini notarius huzurida tasdiqlash, shuningdek, sug'urta shartnomasini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni Qarz oluvchi o'z hisobidan to'laydi.

4.1.6. (Sug'urta kompaniyasining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holda to'liq nomi) sug'urta kompaniyasining, bundan keyin «Sug'urtalovchi» deb yuritiladi, kreditni qaytarilmaslik xataridan raqam bilan (summa so'z bilan) summadagi sug'urta polisi. Ushbu shartnoma bo'yicha mikrokredit taqdim etilgunga qadar Bank Sug'urtalovchi bilan kreditni qaytarilmaslik xatarini sug'urtalash bo'yicha summa raqam bilan (summa so'z bilan) summada sug'urta shartnomasini tuzadi va Sug'urtalovchiga sug'urta mukofotini to'lab beradi. Qarz oluvchi(-lar) to'langan sug'urta mukofoti summasini Bankka Bank tomonidan sug'urta mukofoti to'langan kunda qoplab beradi(-lar).

4.1.7. (Sug'urta kompaniyasining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holda to'liq nomi) sug'urta kompaniyasining, bundan keyin «Sug'urtalovchi» deb yuritiladi, kreditni qaytarilmaslik xataridan raqam bilan (summa so'z bilan) summadagi sug'urta polisi. Ushbu shartnoma bo'yicha mikrokredit taqdim etilgunga qadar Bank Sug'urtalovchi bilan kreditni qaytarilmaslik xatarini sug'urtalash bo'yicha summa raqam bilan (summa so'z bilan) so'm miqdoridagi sug'urta shartnomasini tuzadi va Sug'urtalovchiga sug'urta mukofotini to'lab beradi.

4.2. Agar Qarz oluvchi(-lar) ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan mikrokredit bo'yicha asosiy qarzni, foizlarni va/yoki boshqa to'lovlarni so'ndirish ushbu Shartnomada belgilangan sanada amalga oshirishga qodir bo'lmaydigan vaziyat yuzaga kelsa, Bank O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq undiruvni ushbu Shartnomaning 4.1-bandida ko'rsatilgan mikrokredit bo'yicha ta'minotga qaratish istisnosiz huquqiga ega bo'ladi.

4.3. Qarz oluvchi(-lar) ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarining bajarilishi uchun O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq undirish qaratilishi mumkin bo'lgan o'ziga qarashli mol-mulk bilan javobgardirlar.

Qarz oluvchi(-lar) ushbu Shartnoma (mikrokredit) bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda Bank "O'zbekiston Respublikasining Garov to'g'risida"gi qonunining 19-moddasida belgilangan huquqlardan foydalanadi.

4.4. Garovga qo'yilgan mol-mulkka zarar yetkazilgan va/yoki uning bozor qiymati pasaygan/oshgan taqdirda, Bank garovga qo'yilgan ashyoning qiymatini pasaytirishni/ko'paytirishni talab qilishga haqli, Qarz oluvchi esa Bankning talabiga binoan: garov shartnomasiga qo'shimcha bitim va shartnomaga ilova bo'lgan garov predmetining qiymati to'g'risidagi yangi kelishuv Aktini imzolashni o'z zimmasiga oladi. Bunda garov predmetining qiymati tomonlarning kelishuvi bilan belgilanadi. Agar qiymat bo'yicha kelishuvga erishilmagan bo'lsa, rozi bo'lmagan tomon mustaqil baholovchi kompaniya tomonidan garov predmetini baholashni talab qilishga haqli yoki real vaqt rejimida bozor qiymatini aniqlaydigan konsalting kompaniyasining dasturiy ta'minotidan foydalanish mumkin. Garov predmetini baholash bilan bog'liq xarajatlar baholashni talab qilgan Tomon tomonidan qoplanadi.

Agar Qarz oluvchi kelishilgan qiymatini kamaytirish/ko'paytirish to'g'risida garov shartnomasiga qo'shimcha bitim tuzishdan asossiz ravishda bosh tortsa, Bank qarz oluvchini garov shartnomasiga qo'shimcha bitim tuzishga majburlash talabi bilan sudga murojaat qilishga haqli.

4.5. Garov predmeti va/yoki uning bir qismiga nisbatan undirish qo'llanilganda, Bank o'z xohishiga ko'ra bir tomonlama tartibda undirishning ustuvor ob'ektini tanlash va/yoki Sug'urtachiga

da'vo qo'yish huquqini o'zida saqlab qoladi. Garov predmeti ob'ektlaridan birining undirilishi Bankni garov predmetining boshqa ob'ektiga va/yoki uning bir qismiga da'vo qo'yishini cheklamaydi.

4.6. Qarz oluvchi Shartnomaga binoan o'z majburiyatlarining bajarilishi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq undirib olinishi mumkin bo'lgan o'ziga tegishli bo'lgan barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.

5. BANK HUQUQLARI

5.1. Moliyalashtirish jarayonida Bank Qarz oluvchi(-lar)ning moliyaviy holatini tekshirish huquqiga ega. Bunday tekshiruvlarning davriyligi Bank tomonidan belgilanadi.

5.2. Ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan mikrokredit bo'yicha asosiy qarz, foizlar va/yoki boshqa to'lovlarni so'ndirish muddati kelganda, Bank Qarz oluvchi(-lar)ning bankda ochilgan har qanday hisobraqamlaridan, ularda mablag' bo'lmagan taqdirda esa, istalgan boshqa, jumladan, boshqa banklardagi hisobraqamlardan ham ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan mikrokredit bo'yicha asosiy qarz, foizlarni va/yoki boshqa to'lovlari so'ndirish uchun aktseptsiz va istisnosiz tartibda mablag'larni yechib olish huquqiga ega bo'ladi.

5.3. Quyidagi holatlarda:

- Qarz oluvchi(-lar) tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarning buzilishi va/yoki bajarilmasligi va/yoki lozim darajada bajarilmaganligi;
- Qarz oluvchi(-lar)ning moliyaviy ahvoli yomonlashganda;
- Garov predmet(lar)i va/yoki u(lar)ning bir qismini nobud bo'lishi, qiymatining pasayishi, garov predmet(lar)ining va/yoki u(lar)ning bir qismini qisman yoki to'liq yo'qolishi;
- Kafilning moliyaviy ahvoli yomonlashganda;
- Bank tomonidan Qarz oluvchi(-lar) tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish faktlari aniqlanganda;
- Qarz oluvchi(-lar)ning bank nazoratidan bo'yin tovlashi;
- mikrokredit bo'yicha asosiy qarz, foizlar va/yoki boshqa to'lovlarning o'z vaqtida to'lanmaganligi;
- mikrokredit qaytarilmaslik xatarini oshiruvchi har qanday omillarning paydo bo'lishida,

Bank quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

- ushbu Shartnomani muddatidan ilgari bir tomonlama bekor qilish va/yoki mikrokreditni muddatidan ilgari undirish, jumladan, undiruvni garov predmetiga va/yoki garov predmetining bir qismiga qaratish va/yoki kafilga va/yoki Sug'urtalovchiga talabnoma taqdim etish. Qarz oluvchi/Kafil tegishli xabarnoma (talabnoma) olingan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kuni ichida olingan mikrokreditni Bankka qaytarishga, undan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlarni to'lashga majburdir;
- ushbu Shartnoma bo'yicha yangi summalar va/yoki yangi kreditlar berishni to'xtatish;
- Qarz oluvchi(-lar)ning bankda ochilgan har qanday hisobraqamlaridan, ularda mablag' bo'lmagan taqdirda esa, istalgan boshqa, jumladan, boshqa banklardagi hisobraqamlardan pul mablag'larini, ularni ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan mikrokredit bo'yicha asosiy qarz, foizlarni va/yoki boshqa to'lovlarni so'ndirishga yo'naltirish uchun aktseptsiz va istisnosiz hisobdan chiqarish.

5.4. Bank ushbu Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa shaxsga faqat Qarz oluvchi(lar)ning roziligi bilan o'tkazishga haqli.

5.5. Bank Qarz oluvchini mikrokreditni to'lash jadvaliga muvofiq keyingi to'lovlar sanasi to'g'risida oldindan xabardor qilishga haqlidir.

5.6. Qarz oluvchi(-lar) ushbu Shartnoma imzolangan kundan boshlab bir oy mobaynida mikrokreditdan foydalanmasa, Qarz oluvchi(-lar)ni yozma ravishda xabardor qilgan holda, Bank ushbu Shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqlidir.

5.7. Bank, o'z xohishiga ko'ra, ushbu shartnomada ko'rsatilgan huquqlar/talablarning istalgan birini qo'llashi yoki qo'llamasligi mumkin. Ushbu huquqlar/talablarning qo'llanilmasligi yoki qisman qo'llanilishi Bankni ushbu huquqlar/talablardan voz kechganligini anglatmaydi va ular ushbu Shartnomani amal qilish muddati davomida istalgan vaqtda qo'llanilishi mumkin.

6. BANKNING MAJBURIYATLARI

6.1. Bank zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

6.1.1. Qarz oluvchi(-lar)ga mikrokreditni ushbu Shartnomaning shartlarida berish;

6.1.2. Foizlarni ushbu Shartnomaning 3.1 va 3.2-bandlariga muvofiq hisoblash;

6.1.3. Qarz oluvchini mikrokredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarning holati, ularni bajarish muddati, summasi, tarkibi va muddati o'tgan qarzlarni qaytarish bo'yicha majburiyatlarning bajarilmaslik oqibatlari to'g'risidagi xabardor qilish.

6.1.4. Bank Qarz oluvchi(-lar)ga ushbu shartnomada nazarda tutilgan mikrokreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, ushbu kredit bo'yicha mablag'lar berishni to'xtatib qo'yish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan Qarz oluvchiga kredit berish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan yozma yoki masofaviy aloqa kanallari orqali xabarnoma yuborish.

6.1.5. Agar kreditni qaytarish jadvali rasmiylashtirilgandan so'ng kredit bo'yicha moliyalashtirishni boshlash muddatlari yoki shartnomada ko'zda tutilgan suzuvchi foiz stavkasi o'zgarishi, kredit shartnomasining shartlari tomonlar o'rtasida qayta ko'rib chiqilishi (shu jumladan, kreditning restrukturizatsiya qilinishi), Qarz oluvchi tomonidan kredit qisman muddatidan oldin so'ndirilishi munosabati bilan kredit bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki oraliq kredit to'lovlarning miqdorlari o'zgarganda Bank kreditni qaytarish jadvalini yangidan rasmiylashtirib, Qarz oluvchiga taqdim qilish.

Bunda, kreditni (qarzni) qaytarish jadvali yangidan rasmiylashtirilishi bilan undan oldin mavjud bo'lgan kreditni qaytarish jadvali o'z kuchini yo'qotadi.

6.1.6. Bank Qarz oluvchi tomonidan ushbu shartnomaga asosan kredit bo'yicha qarzдорlik summasini to'lash majburiyati to'liq bajarilgan sanadan boshlab 3 (uch) ish kunidan kechiktirmagan holda mazkur kredit bo'yicha:

- garovda turgan mulkni taqiqdand chiqarish;
- garov sifatida bo'lgan mol-mulkka nisbatan bankning huquqlari to'g'risidagi yozuvni Garov reestridan chiqarish.

7. QARZ OLUVCHINING HUQUQLARI

7.1. Qarz oluvchi(-lar) mikrokreditni ushbu Shartnomada belgilangan muddatlardan ilgari so'ndirish huquqiga ega. Asosiy qarzni so'ndirishdan avval Qarz oluvchi(-lar) ushbu sanagacha hisoblangan foizlarni to'lashlari shart.

7.2. Ushbu Shartnoma tuzilgandan keyin Qarz oluvchi bankdan pul olgunga qadar mikrokreditni olishdan voz kechish huquqiga ega.

7.3. Qarz oluvchi(-lar) ushbu Shartnomaning 2.5-bandida belgilangan ketma-ketlikka rioya qilgan holda mikrokreditni to'liq summasini yoki qisman muddatidan avval so'ndirish va foizlarni to'lashga haqlidir.

Kreditni muddatidan oldin so'ndirish Qarz oluvchi(-lar) tomonidan Qarz oluvchi(-lar)ning arizasi yoki Bankning mobil ilovasi orqali, shuningdek shartnomada kelishilgan boshqa aloqa vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Kreditni qisman muddatidan oldin qaytarilgan taqdirda, foizlarni to'lash bo'yicha har oylik to'lov qayta hisoblab chiqilganidan keyin muddatidan avval qisman so'ndirish amalga oshirilgan davrdan boshlab yangi summada hisoblanadi va yangi summasi Shartnomada belgilangan muddatlarda so'ndirilishi lozim bo'ladi.

7.4. Qarz oluvchi kredit (qarz) bo'yicha garovda turgan o'zining depozitidagi (omonatidagi) mablag'larini kredit (qarz) shartnomasi davrining xohlagan vaqtida depozit (omonatning) amal qilish muddatidan qat'iy nazar, mazkur kreditni (qarzni) qaytarish uchun yo'naltirish huquqiga ega. Bunda, Qarz oluvchi kredit (qarz) bo'yicha garovda turgan o'zining muddatli depozitidagi (omonatidagi) mablag'larini shartnomada ko'rsatilgan depozit (omonat) muddati tugagunga qadar kreditni (qarzni) qaytarish uchun yo'naltirmoqchi bo'lsa, u bu haqda bankni depozitni (omonatni) qaytarishni mo'ljallayotgan sanadan kamida 1 (bir) oy oldin xabardor qilishi lozim.

8. QARZ OLUVCHINING MAJBURIYATLARI

8.1. Qarz oluvchi(-lar) quyidagi majburiyatlarni zimmasiga oladilar:

8.1.1. Mikrokreditdan foydalanish jarayonida quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish: muddatlilik, qaytarishlik, to'lovlik, ta'minlanganlik, maqsadlilik;

8.1.2. Ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan mikrokredit bo'yicha asosiy qarzni, foizlarni va/yoki boshqa to'lovlarni ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda so'ndirish;

8.1.3. Qarz oluvchi(-lar)ning moliyaviy ahvoli yomonlashishiga va Qarz oluvchi(-lar) tomonidan ushbu Shartnomaga muvofiq Bank oldidagi majburiyatlari bajarilmaslik va/yoki lozim darajada bajarilmaslik xavfiga olib kelishi mumkin bo'lgan hech qanday majburiyat olmaslik va choralarni qabul qilmaslik;

8.1.4. Bank nazorat funksiyalarini bajarishi uchun:

- Mikrokredit olish uchun taqdim etilgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni istalgan manbalardan foydalangan holda, jumladan, yashash joyi, ish joyi va hokazolarga tashrif buyurib tekshirish va takroriy tekshirish imkoniyatini Bank xodimlariga taqdim etish;

- Garov predmetining mavjudligini, saqlash sharoitlarini tekshirish uchun Bankka to'sqinlik qilmaslik va barcha shart-sharoitlarni yaratish, Qarz oluvchi(-lar) tegishli so'rovni olgan kundan boshlab 5 (besh) kalendar kuni ichida garov predmeti bo'yicha Bank talab qilgan barcha axborotni taqdim etish;

- Garov predmetini ko'zdan kechirish, ushbu Shartnoma doirasida berilgan Mikrokredit bo'yicha monitoring Dalolatnomalarini o'z vaqtida imzolash;

- Bankning yozma so'roviga binoan, ushbu so'rovni olingan kundan boshlab 5 (besh) kalendar kuni ichida shaxsga doir ma'lumot, shaxsiy, biografik yoki boshqa ma'lumotlarni taqdim etish;

8.1.5. Ushbu Shartnomaning 4.1-bandida ko'rsatilgan tegishli shartnoma/hujjatlarni unda o'rnatilgan muddatlarda tuzish/imzolash/rasmiylashtirish;

8.1.6. Bankning talabi bo'yicha quyidagi hollarda mikrokreditni qaytarilishini qo'shimcha ta'minlash:

- qarz oluvchi(-lar) moliyaviy ahvoli yomonlashganda;
- kafilning moliyaviy ahvoli yomonlashganda;
- garov predmet(lar)i va/yoki u(lar)ning bir qismini nobud bo'lishi, qiymatining pasayishi, garov predmet(lar)ining va/yoki u(lar)ning bir qismini qisman yoki to'liq yo'qolishi;
- mikrokredit qaytmaslik xatarini oshiruvchi har qanday omillarning paydo bo'lishida.

8.1.7. Bankning talabiga ko'ra Bank qilgan harajatlarini, jumladan, mikrokredit bo'yicha qarz oluvchilikni (asosiy qarz, foizlar va boshqa to'lovlar) majburiy va/yoki muddatidan avval undirish choralarni ko'rish bilan bog'liq barcha harajat va zararlarini qoplab berish;

8.1.8. Mikrokredit olish uchun hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning o'zgarganligi to'g'risidagi, jumladan, pasport ma'lumotlari, propiska, ro'yxatdan o'tganligi, haqiqiy yashash joyi, ish joyi, familiyasi, ismi, otasining ismi, uy, ish yoki uyali telefon raqamlari va bog'lanish vositalari o'zgarganligi, shuningdek, Qarz oluvchi (-lar)ning ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar yuzaga kelganligi to'g'risidagi bunday o'zgarishlar, holatlar yuzaga kelgan kundan boshlab 5 (besh) kalendar kuni ichida bankni xabardor qilish va zarur bo'lsa kredit hujjatlariga qo'shimcha kelishuvlarni Bank bilan imzolash. Bank Qarz oluvchi tomonidan ushbu moddada ko'rsatilgan majburiyatlar bajarilmaganligi sababli Qarz oluvchi tomonidan bank xabarnomalari olinmaganligi yoki uchinchi shaxs tomonidan olinganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

8.1.9. Bankka ushbu shartnomada va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan istalgan huquqlarini amalga oshirishida to'sqinlik qilmaslik;

8.1.10. Qarz oluvchi(-lar) ushbu Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini Bankning yozma rozilgisiz boshqa shaxsga to'liq yoki qisman o'tkazishga haqli emas.

8.2. Ushbu bilan Qarz oluvchi(-lar) ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan mikrokredit bo'yicha asosiy qarz, foizlar va/yoki boshqa to'lovlarni to'lash muddati kelganda, Qarz oluvchi(-lar)ning bankdagi istalgan hisobraqamidan, shuningdek Qarz oluvchi(-lar) boshqa banklardagi hisobraqamlaridan mablag'larni aktseptsiz, istisnosiz va chaqirib olinmaydigan hisobdan chiqarish huquqini taqdim etadi.

9. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI

9.1. Shartnoma majburiyatlari tomonlarning biri tomonidan bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, ushbu tomon boshqa tomonga yetkazilgan zararlarni qoplab beradi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

9.2. Hisoblangan foizlar belgilangan muddatda to'lanmagan hamda ular bo'yicha muddati o'tgan Qarz oluvchiliklar yuzaga kelgan hollarda, Qarz oluvchi Bankka kechiktirilgan har bir kun uchun, kechiktirilgan to'lov summasining 0,15 % miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

9.3. Kredit mablag'larini belgilangan muddatda ajratishni kechiktirganligi uchun Bank Qarz oluvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan kredit miqdorning 0,10 % miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

10. FORS-MAJOR

10.1. Yengib bo'lmas kuch (fors-major) holatlarining: tabiiy ofatlar, epidemiyalar, suv toshqinlari, ushbu Shartnoma taraflarining nazorati ostida bo'lmagan boshqa hodisalarning yuzaga kelishi taraflarni ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganligi yoki o'z vaqtida bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qiladi. Agar majburiyatlarini bajarishga fors-major holatlari to'sqinlik qiluvchi taraf boshqa tarafni bunday holatlar yuzaga kelganligi to'g'risidagi 10 kunlik muddat ichida xabardor qilmasa, bu taraf ushbu holatlarni fors-major holati sifatida havola qilish huquqidan mahrum bo'ladi. Yengib bo'lmas kuch holatlarini isbotlash majburiyati o'z majburiyatlarini bajarmagan tarafga yuklatiladi.

11. BOSHQA SHARTLAR

11.1. Ushbu Shartnoma tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va Bank va Qarz oluvchi(-lar) ushbu Shartnoma bo'yicha zimmasiga olgan barcha majburiyatlarni to'liq bajarmaganlaricha amal qiladi.

11.2. Ushbu Shartnoma shartlarining har qanday o'zgarishi tomonlarning o'zaro roziligi bilan amalga oshiriladi va yozma kelishuv bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu Shartnomaga har qanday qo'shimcha kelishuvlar, Bank ishtirokisiz tuzilgan bo'lsa va ushbu kelishuvlarda Bankning imzolari va muhrlari bo'lmasa, yuridik kuchga ega bo'lmaydi.

11.3. Nizolar yuzaga kelgan taqdirda bank yozuvlari ushbu Shartnoma bo'yicha ikkala tomon majburiyatlarining eng ustun dalili hisoblanadi.

11.4. Taraflarning bir-birlariga talabnomalari (xabarnomalar, xatlar va boshqa hujjatlar), ular yozma shaklda tayyorlangan bo'lsa, Qarz oluvchi/Bank tomonidan imzolangan va ushbu Shartnomada ko'rsatilgan Bank/Qarz oluvchining manzillariga buyurtmali pochta jo'natmasi bilan yuborilgan yoki Qarz oluvchi oluvchi/Bank tomonidan yetkazilgan, imzo chektirib topshirilgan yoxud Masofadan xizmat ko'rsatish kanallari yoki faks orqali bo'lsa, tegishli yuborilgan deb hisoblanadi. Xabarnoma pochta kvitantsiyasida pochta bo'limi tomonidan urilgan sanadan, xabarnomada kurer qabul qilgan sanadan (kurer tomonidan yetkazilgan bo'lsa) yoki xabarnomani faksimil aloqa vositasida jo'natilgan yoki Masofadan xizmat ko'rsatish kanallari orqali jo'natish sanasidan boshlab yuborilgan deb hisoblanadi. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda, har ikkala taraf ham O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar. Bankning har qanday xabarnomasi, so'rovi yuborilgan sanadan keyingi uchinchi kalendar kunida Qarz oluvchi(-lar) tomonidan qabul qilingan deb hisoblanadi.

11.5. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda, ikkala taraf ham O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

11.6. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan yoki u bilan bog'liq, shu jumladan uni tuzish, o'zgartirish, ijro etish, buzish, bekor qilish, to'xtatish va haqiqiy emasligi bilan bog'liq bo'lgan barcha nizolar, kelishmovchiliklar va da'volar Taraflar tomonidan talabnomalarni ushbu Shartnomaning 11.4-bandida ko'rsatilgan tartibda yuborish orqali hal qilinadi.

Talabnoma taqdim etilgan taraf, talabnoma olingan kundan boshlab 15 kun ichida (ushbu Shartnomaning 5.3-bandida ko'rsatilgan xabarnoma(talabnoma)ni yuborilgan holatlar bundan istisno) unga javob berishga majburdir.

11.7. Nizolarni o'zaro kelishuvlar yo'li bilan hal qilish imkoni bo'lmagan taqdirda, ushbu shartnoma yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar, shu jumladan ushbu shartnomani tuzish, uni ijro qilish, o'zgartirish, bekor qilish, uning haqiqiy emasligiga doir nizolar Da'vogarning ixtiyoriga ko'ra "DS Legal Centre" MCHJ huzuridagi doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Hakamlik sudi yoki fuqarolik ishlari bo'yicha _____ tumanlararo sudi tomonidan ko'rib chiqiladi. Nizolar "DS Legal Centre" MCHJ huzuridagi Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudi tomonidan ko'rib chiqilgan taqdirda, ishlar ushbu sudning Raisi tomonidan "DS Legal Centre" MCHJ hakamlik sudining Qoidalariga muvofiq hal qilinadi. Hakamlik sudining qarori qat'iy va taraflar uchun majburiy bo'lib qayta ko'rib chiqilmaydi.

11.8. Ushbu Shartnoma bilan Qarz oluvchi(-lar), kredit tarixini shakllantirish uchun, Bank tomonidan Kredit axboroti davlat reestri, Kredit byurosi, Garov reestri Davlat unitar korxonasiga ushbu Shartnomaning tuzilish shartlari, taqdim etilgan ta'minot va majburiyatlarning bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etilishiga roziligini bildiradi.

11.9. Ushbu Shartnoma Taraflarning har biri uchun bir nusxadan bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki/uch nusxada tuzilgan.

11.10. Mikrokredit shartnomasining 11.7-bandida sudning nomi Amaliyot boshqarmasi/MBXOlar tomonidan mustaqil ravishda to'ldiriladi.

12. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

Tomonlarning yuridik manzillari va bank rekvizitlari Amaliyot boshqarmasi/MBXOlarning joylashgan joyiga qarab belgilanadi.

<i>Bank</i>	<i>Qarz oluvchi</i>	<i>Birgalikda qarz oluvchi</i>

